

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат
Архитектура - Қурилиш Институти

“Қурилишни бошқариш” факультети
“Касбий таълим” кафедраси



Диплом лойиҳасининг
ТУШУНТИРИШ ХАТИ

**Мавзу: Олти қиррали нақш композициясини яратиш
ва уни ўқитиш услуби.**

Кафедра мудири: доц. Рахимов А.Қ.
Раҳбар: К.ўқт. Абраев К.Ш.
Бажарди: 401-КТ(с) гуруҳи
талабаси Сатторов О.

Самарқанд 2013 йил.

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

«Қурилишни бошқариш» факультети
« Касбий таълим » кафедраси

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Диплом лойихасининг мавзуси

*Олтега кўрғанидаги нақш қолдозиқларининг янги
ва ўнги ўқитиш усули.*

Диплом лойихасини
бажарувчи толиб (а)

Сатторов Атабек
(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

Кафедра мудири

доц. Рахимова А.К.
(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

Рахбар

К. ўқитувчи Абдиев К.Ш
(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

Маслахатчилар

Меликулов А.Н
(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

Абдиев Ф.Ш
(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

Мирзо Улуғбек номидаги Самарканд Давлат Архитектура
Қурилиш Институтини

«Қурилишни бошқариш» факултети

«Касбий таълим» кафедраси

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН
ТОПШИРИҚ

Сатторов Отабек

(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

I. Диплом лойиҳасининг мавзуси Олтин Қўрғонда нақш
қолдирганларнинг ёратилган ва ўрни ўзгариши
ўрганилиши.

Институт буйича 20 йил «__» _____ сон буйруқ асосида тасдиқланган.

II. Диплом лойиҳасини бажариш учун маълумотлар Диплом лойи-
ҳаси мавзусига ўзига керак бўлган адабиётлар
тўплами

III. Тушунтириш хатида келтириладиган:

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Мавзунинг
таҳлилий асослари ўзига тўпланган адабиётлар-
дан фойдаланиш ва тўпланган маълумотлар
асосида мавзунинг таҳлилий асосини ёратиш.
2. Диплом лойиҳасининг назарий шакли ишланмалари Мавзу бўйича диплом
лойиҳа шартининг назарий шартининг
шартини.
3. Диплом лойиҳасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Диплом лойиҳа
шартини мавзусига оид амалий шартини бир неча
эскиз шартининг бажарилиши.
4. Ўқув услубий қисми Мавзуга оид 80-минутлик қарс
шартининг ўқув метод технологиялар фойда-
лини технология шартининг ёратилиши
5. Диплом лойиҳаси бўйича хулоса қисми Талабанинг диплом шартини
мавзусига бўйича таҳлилий хулосаси.
6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Диплом лойиҳасининг мав-
зусига оид фойдаланилган адабиётлар
шартининг шартининг келтирилади.

IV. Диплом лойиҳасининг таркиби ва график қисми:

1. Мавзуа оид бир неча нақшларнинг эскизи
2. Нақшнинг тўғалганми ҳақиқатига бўлган босқизча - босқиз тасвири 1-барак
3. Дарс ўтмиш режаси ва тақсимоти. 1-барак
4. Нақшнинг босқизча - босқиз тасвирини ўқитиш ва ўқитиш усули бўйича дарс ўтмиш метод-фиксация ёрдамчи плакат 1-барак

V. Диплом лойиҳасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Диплом иши қисмлари	Бошланиши	Тугалланиши	Маслаҳатчилар	Изоҳ
1.	Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш.	01.03.13	25.03.13	Абраев К.Ш	Аббас
2.	Диплом иши назарий шаклининг ишланмалари.	26.03.13	12.03.13	Абраев К.Ш	Аббас
3.	Диплом ишининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш.	13.04.13	10.05.13	Абраев К.Ш	Аббас
4.	Ўқув услубий қисми.	11.05.13	15.06.13	Абраев К.Ш	Аббас

Изоҳ:

1. Диплом лойиҳаси «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида раҳбар ёки маслаҳатчи томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра томонидан рухсат берилади.

VI. Топшириқ берилган сана 01.03.13. й

VII. Тугалланган диплом лойиҳасини топшириш санаси 15.06.13

Диплом лойиҳаси раҳбари К. ўқитувчи. Абраев К.Ш. (фамилияси, исми, шарифи) Аббас (имзо)

Топшириқ бажариш учун қабул қилинди Сатторов О (фамилияси, исми, шарифи) Аббас (имзо)

Кафедра мудири доц. Рахимова А.К. (фамилияси, исми, шарифи) Аббас (имзо)

Mundarija:

1. Kirish.....	1-2 bet
2. Mavzuni asoslash.....	3-10 bet
3. O'quv uslubiy qism.....	11-21 bet
4.Ilyusrasiya.....	23-31 bet
5.Tabiatni muxofaza qilish.....	32-34 bet
6.Xulosa.....	35-36 bet
7.Foydalanilgan adabiyotlar.....	37-38 bet

Kirish

Kirish.

Badiy naqqoshlik sa'nati tug'risida , uni urganish xaqida ma'lumot berar ekanmiz , avvalo sizlarni uzoq utmish madaniyatining namunalarini , tarixiy obidalarni xayolan kuz o'ngingizga keltirishga , tassavur etishga undaymiz. Quli gul ustalarning aql- idrok ila yaratilgan bu ajoyib maftunkor obidalarni noyob badiy naqshlarni insonlar zavq-shavq bilan tomosha qildilar. Badiy naqqoshlik , uymakorlik , kashta tikish sa'natini namunalarini-xayotni, tabbiy manzaralarning aksini, chiroyli gullarning shakllarini binolarning peshtoqlarida , eshiklarda, uy anjomlarda va boshqalarda kurasiz, ularning moxirlik bilan tasirlanganligi chuqur xis etasiz.

Xalqning bu xil nafis, nozik ijodi siz yoshlarni, ayniqsa, o'ziga jalp etadi. Agar siz shu badiiy sa'natning biror turi, masalan naqqoshlik turiga qiziqib uni o'zgarishga jazm etsangiz, uni egallaysiz, xayotda eng go'zal kasb soxibi bo'lib yetishasiz, kishilarga go'zallik xis-tuyg'usini baxsh etasiz.

Naqqoshlikni o'rganishga qo'yilgan dastlapki qadamda avvalo ko'z bilan mo'ljallashga, rasmlar simmetriyasini tartib, chidam bilan mo'ljallashga, rasmlar simmetriyasini tartib, chidam bilan ishlashga, mexnatni sevishga so'ng xar-xil qog'oz va yog'ochlarga turli tasvirlarni chizib, buyashga odatlanib boriladi. Qarabsizki, kup utmay, siz ishlagan chiroyli naqqoshlik buyumlari odamlarga estetik zavq beruvchi moddiy boyliklarga aylanib qoladi.

Mana shunday mexnat bilan elga qilingan tortiq borasida ulug' mutaffakir Fuzuliy shunday yozgan ekan; "Insonning qadri donoligi elga, manzur xizmati elga barobardir." Maskur qullanma pedagogik o'quv suratlarning № 2109 - Badiy grafika va chizmachilik, №2120 - Umum texnika va mexnat fakulteti uchun o'quv rejasi va dasturi asosida yoziladi. Qullanmani yozishda shu fanni o'qitish soxasidagi ko'p yillik tajriba va sinovlarga asoslandi va tuldirildi.

O'zbek xalqining amaliy me'morchilik sa'nati o'ziga xos boy an'analarga ega. Bizning davrimizga qadar yetib kelgan amaliy me'morchilik sa'nati asarlari rang-barang va xilma-xildir. Bular kullolik buyumlari, ipakdan, jundan tuqilgan gazlamalar, xar-xil gilamlar va paloslar, yog'och va metaldan ishlangan uy-ruzg'or ashyolari, gul chekib uyilgan marmar tosh buyumlari, badiiy kashta bilan bezalgan so'zanalar, guldor jiyaklar, zarxal kashtalar, turli xil duppilar va boshqalardir.

Amaliy sa'natning bu qayd etilgan turlari xar manzilning o'ga xos maxalliy xususiyatlariga ega bulib, shakl va naqsh buyoqlarida aks ettiriladi. Bu esa ustalar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezak aspoplari mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda o'zining rang-barang shoyi atlas, beqasam, xon atlas vaboshqa turli buyumlari bilan uzoq asrlardayoq nom chiqarib kelgan. Xozirgi vaqtda badiiy tuqimachilik sa'nati Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, va Buxoro shaxarlarida juda rivojlangan.

Mavzuni asoslash

Mavzuni asoslash

Naqsh bu - bezak, muallif ijod qilgan, ritmik ravishta takrorlanadigan qattor tasvirlardir. Uy anjomlari va jixozlariga, devorlari va shiplariga chizib buyalgan naqshlar ularning badiiy qimmatini oshiradi, kishilarning estetik didini boyitadi. Naqqishlangan o'zbek buyumlari jaxonga mashxur. O'zbek milliy naqqoshligining an'alarini saqlab, ularni yangi mazmun bilan boyitgan ajoyib xalq ustasi Olimjon Qosimov (1878-1952) Toshkentlik naqqosh maktabining eng yirik namoyondasidir.

XIX-asr ikkinchi yarmidagi o'zbek naqqoshligi bezaakdorligi, naqqishlarning xilma-xiligi bezakdorligi rang-barangdorligi bilan o'ziga xosdir. Amaliy sa'natning eng kup tarqalgan turli naqqoshlikdir.

Bu xunarga uni tutungan otasi, usha davirning taniqli mussaviri Sherxuja Xasanov o'rgatgan. XX-asrning 20-yillaridan so'ng Olimjon aka yosh ustalarni o'rgatishga ko'p kuch va mexnat sarifladi. Ularning eng taniqli shogirdlaridan Jalil Xakimov, Toir To'xtaxujayivlarni ko'rsatish mumkin.

Taniqli naqqosh Saidmaxmud Norquziyev sakson yildan beri Quqonda yashab ijod qilmoqda. Norquziyevning ota - bobolari ham naqqoshlik bilan shug'ulanganlar. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrining Farg'ona zalini bezashda Norquziyev ishtirok etgan.

Xivalik Abdulla Boltayev xaqli ravishta Xiva mussavvir –naqqoshlar makyabining otaxoni xisoblanadi. Naqqosh ijodiy uslubi vaishining o'ziga xosligi jixatidanbinokor naqqosh xisoblanadi.

Toshketlik ustalar o'zlari yaratgan kompazitsiyalarida poygori yassi uymadan va geometrik shakllardan foydalanganlar. Poygori uslubida ijod qilgan uymakor ustalardan Toshpulat Ayubxujayev yaratgan naqqishlar yog'och va chinor yog'ochlaridan yasalgan ko'p qirrali stol, kursi, quttichalarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston xalq musavviri usta Yoqubjon Raufov yog'ochga naqsh chizish sa'natini o'z otasidan o'rgandi. Mussavir murrakab kompazitsialarda kundalik xayot mavzusini yoritadi.

Xalq amaliy sa'nati XIII-asrgacha ma'lum taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lsada, kupgina sabablarga ko'ra, XII-XIII –asrlarda inqirozga yuz tutdi. Uning ko'pgina qismi vayron qilindi yoki butunlay yo'qotildi.

Endilikda bolalarimizning asrlar davomida yaratgan sa'nati e'zozlanib, qayta tiklanmoqda va yosh ustalar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda. Ma'lumki, XIV-XVI-asrlarda Samarqand saroy devorlari monumental naqsh bilan bezatilardi. Devordagi naqshlar temuriylar g'alabalarini tariflar edi. Bu davrda yirik mashtabli geometrik naqshlar kup ishlatilar edi. Sarg'ish-ko'kimtir, pushti rang XIX-asrda Samarqandda saqlanib qolgan naqshga xos gammalardir.

Buxoro yodgorliklari XVI-asrga oid devorga rasm chizish sa'nati xaqida tasavvur xosil qilishga yordam beradi. Maschit, madrasalarning intererlari markaziy ko'p qirrali yulduzsimon naqshlar bilan bezatilgan. Naqsh tuq xavo rang buyoq bilan, fon esa oltin aralash jigar rang buyoq bilan buyalgan.

XIX-asrning oxirigacha arxitektura naqshi Toshkentda shiplarni, ustun kapitellarni, jamoat binolari devorlarini, maxilla maschitlarini va boylarning uylarini bezashda ishlatilib kelindi. Bu davrda arxitektura o'z qonun uslubiga ega buldi. Devorlar uch qismga; oynabandva frizga bulingan.Devor bilan ship orashi "sharafa " tipidagi karnizlar bilan bezatilar edi. Tarixiy yodgorliklari bulgan shaxarlar juda kup. Shulardan eng nodir yodgorliklarga boy bulgan joy O'zbekiston Respublikasi.

O'zbekiston o'z me'morchilik, naqqoshlik sa'nati bilan butun dunyoga mashxurdir. Yodgorliklarning bizgzcha yetib kelishining sababi xalqning o'z sa'natini nixoyatda sevib, ezozlashi natijasidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin juda ko'p binolar, xotira maydonlari, saroylar, Turkiston saroyi. Toshkent sirki kabi inshoatlar qurildi. Rassomlar uyi zamonaviy arxitektura va naqshlar bilan bezatildi. Toshkent vagzali, Toshkent metro stansialarning bezatilishi, Temuriylar tarixiy davlat muzeyi, undagi nozik did bilan ishlangan naqshlar XIX-asrda yaratilgan naqshlardan xam o'zib ketdi.

Naqqoshlik sa'natining bunday rivoj topishi xalqning ijodkorligi, guzalikka intilish va yaratuvchanlik saloxiyati natijasidir. Asosiy omil bu emas ijodkorlik, guzalikka oshnolikdir. Naqsh elementlarini chizishda quydagilar kerak bo'ladi; yarim vatman, qog'ozdan tayyorlangan chizmachilik uchun tutiladigan albom, guash buyog'i, sariq va kumush rang kukunlar, guash buyog'i surtish uchun laklar.

Laklar xar-xil buladi. 4''c''markali moyli lakning tussi quyuq ko'k choy yoki paxta yog'iga o'xshash bulgan, ishlatganda buyoqlarning rangini o'zgartirmaydi. Ayrim moyli laklarga maxsus markalar quyilmaydi. Bu laklarning rangi toza, tiniq bulsa, kichkina narsaga so'rib quyish kerak. Laklar 18-23 c xaroratda 48 soatda yaxshi quriydi.

Naqqoshlikda moyli lakdan boshqasi ishlatilmaydi. Spirtli laklar ishqorli, politura laklar buyumga berilgan buyoqning rangini o'zgartiradi varang jilva bermaydi.

Naqsh elementini ishlashda kerakli asboblardan "M" markali qora qalam, yumshoq o'chirg'ich, qalam uchini ochish uchun moslama, har xil uchburchakli chizg'ichlar, bursuq muyli uchi yumshoqlangan muy qalam. Katta-kichik belchalar kerak bo'ladi.

Buyumga ishlov berishdan oldin kerakli materiallar jilvir qog'oz, alif, maydalangan bur, xal tayyorlab quyiladi. Buyum sirti tekislab, jilvirlangandan so'ng unga bir marta aksol alifi so'rib chiqiladi. Aksol alifi sof alifga qaraganda tez quriydi.lekin har ikkala alifni ham ishlatish mumkin.

Qorishma yog'och elimi, maydalangan bur va alifdan tayyorlanadi. Elimni ertish tartibi: yog'och elimi maydalanib, yelim idishga yoki oddiy paqirga solinadi. 1 kilogramm yelimga 3 litr issiq suv solinadi. Elim 100 darajaga issiqlikda qaynatiladi. O'tda, olovga quyilgan elimni uning donachalari eriguncha yog'och bilan kovlab turish lozim. Shunday qilinmasa, yelimning erimagan qismi idish tagiga yopishib, quay boshlaydi.

Elimni yana boshqa usulda ham ertish mumkin: yelim maydalanmasdan, kattaroq paqirga solinadi, paqir iliq suv bilan to'ldiriladi. Bir sutkadan keyin u yumshoq xolga keladi. So'ngra boshqa idishga solinadi va suvsiz qaynatib ertiladi. Elim uzun bo'lib cho'ziluvchan xolda bo'lsa, tayyor bo'lgan hisoblanadi.

Qaynatilgan elimga elakdan o'tkazilgan bo'r solinadi va tayoqcha bilan aralashtiriladi. So'ngra 1 kg elim xisobiga 0,3 litr aksol yoki sof alif solinadi. Alif ustidan yana bur qo'shiladi, alif tez singib ketadi. Qorishmaning tayyor bo'lmaganini bilish uchun uni belchada sirg'alib ketmasa, tayyor bo'lgan hisoblanadi. Alif ko'p qo'shib yuborilgan bo'lsa mo'ljallab eritilgan elim va bur solib aralashtiriladi. Qorishma bu- yumning hamma tomonlariga, ayniqsa chokalariga silliq qilib suriladi. So'ngra qorishma qotgach, mayday donalik jilvir qog'oz bilan satx silliqqlanadi, qorishma ustidan issiq bo'lmagan elim suvi suriladi.

Qorishma ishlatib bo'lgach, idishda qotib qolmasligi uchun, uning ustiga suv solib quyish kerak. Ishlatish zarur bo'lganda, suv to'kilib tashlanadi.

Biz badiiy naqqoshlik san'atimizning qadimdan davom etib kelayotgan boy an'analiga amal qilib, ulardan mumkin qadar ko'proq foydalanishimiz kerak. Shu bilan birga o'z ishimizda zamonaviy va xalqimizning talablariga muvofiq yangiliklar yaratishimiz, chunonchi, o'zbek xalqining iftixori bo'lgan qishloq xo'jalik maxsulotlari, chorvachilik, texnika yangiliklari, sport va hakovolarga oid yangi naqshlar tuzishimiz va ularni bezatiladigan buyumlarga kiritishimiz lozimdir.

Uncha issiq bo'lmagan elim toza idishga solinib, xal bilan aralashtiriladi. U o'rtacha suyuqlikda bo'lishi kerak, agar quyuq bo'lsa, mo'y qalam bilan surish qiyinlashadi. Agar elim ko'p bulsa, xal darrov kukimtir tusga kiradi. Buyumga surilgan xal 5-10 minutdan keyin selgiydi, sungra xal surulgan buyum quruq toza muyqalam bilan ishqalanadi. Natijada, xal juda silliq bo'lib jilva beradi. Xavaskor yosh naqqoshlar bursiq muyli muyqalamdan foydalanishlarini tavsiya qilamiz. Muyqalamlarning uchi yumaloqlangan bulib, 1dan 10gacha raqamga egadir.

1va2raqamli muyqalamlar gul tushirilgandan so'ng siyox qalam va targ'il qilish, 3va4 raqamli muyqalamlar band va marg'ullarga buyoq so'rish, 5va6 raqamli muyqalamlar zamin buyog'ini berish, 7va8 raqamli muyqalamlar buyumning ichki tomonini buyash, 20 raqamli yassi suv bilan sovunlab yuvish shart.

Naqqoshlik usaxonasi doim yorug', quruq va o'rta darjada issiq bulishi kerak. Ustaxonada xar-bir o'quchining ishlashi uchun 2,5 kv metrdan joy ajralishi, aspob va buyoqlarni quyish uchun shkaf bo'lishi shart.

Ustaxonada keng oynali bo'lib, unga tabiiy yoru'g' to'la tushib turishi zarur. Elektir nuridan imkoniyati boricha foydalanmaslik kerak, chunki elektir nuridan buyoqlarning rangi boshqacha ko'rinib, ko'zni aldaydi, ularni farqlab olish qiyin buladi. Xususan, ko'k rang bilan xavo rangni ajratish qiyindir.

Naqsh jizishni o'rganish asosan naqsh elementlaridan eng oddiy nusxa kuchirishdan boshlanadi. Yosh musavvir ma'lum malakaga ega bo'lmog'i uchun naqqoshlik kitobining "Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash uslubiyati" bilan tanishib chiqishi zarur. Shundagina, qog'ozga to'g'ri va chiroyli chiziq o'tkazishni o'rganish, chizilgan chiziqlar aniq va ravon bulishi mumkin.

Dekorativ rasm chizishni o'rgaznash naqsh chizishdan boshlanadi. Naqsh chizish namunaga qarab yoki ijid qilib chiziladi. Badiiy naqsh chizish 2-sinfda o'rik barigini yo'l ichiga xar-xil shaklda joylashtirib chizishdan boshlanadi. Shakllar asosan turtbo'rchak, uchburchak shaklida joylashtiriladi. Chizilgan bargni tuqimasimon chiziq ichiga joylashtirib, naqsh xosil qilish mumkin. Keyinroq qsd, kvadrat ichiga 2-3 elementdan tuzilgan naqshlarni chizish o'rnatilad.

Lola tasviridanturlicha naqsh chizish uch xil qilib chizildan oxirgi nusxasi "madoxili" naqshiga o'xshab ketadi. Biz naqsh chizishni naqqoshlikda ishlatiladigan naqsh elementlardan boshlaymiz. Chizmachilikda foydalanadigan albom olib, birichi varag'iga oralig'i 5-6 sm kenglikda uch xil chiziq chiziladi. Chizilgan yo'lni kvadratlarga bo'lib chiqiladi. Kvadratlarning diagonallarini o'tqazib, diagonal buyicha bargning yuqori chetini qabariqroq qilib, pastki chetini botiqroq qilib chiziladi. Su tartibda xamma kvadratlarga barg chizib chiqiladi. Tasvir etilgan element oddiy barglar turiga kiradi. Barg chizish ko'nikmasi xosil qilingach, murakkabroq barglar chiziladi.

Quydagi bargning chetini ko'ngra gajak qilib chizamiz, bu xam diagonal yordamida chiziladi. Bu turli variantlarga ega bo'lga elementlardir. Endi bargning ikalla chetini gajak shaklida chizamiz. Bu barg "gajagbarg" deb ataladi. Gajagbargni kvadrat ichiga diagonal yordamida chizish kerak.

Barglar bir-birini kesib o'tish, ayqoshib tushishi mumkin. Bunda bargning ikkala diagonalaridan foydalaniladi. Barglar ichiga eng kattasi, chiroyliligi bilan ajralib turadigan bargkar sultonni "shabarg" deb ataladi, U katta kvadrat ichiga chiziladi. Shobargning gijaklari xuddi burgut tumshug'iga uxshab qayrilgan bo'sa, pastga qarab egilib turishi salom berayotgan majnuntolga uxshaydi. Shobargda yaproqlar ko'p bo'lib, xar-bir yaproq xar-xil ranga buyaladi. Xar-bir yaproq elementini qul o'rganguncha takror chizish maqsadga muvofiqdir. Oddiy barglardan naqshlar tuzish mumkin.

Paxta shonasining oddiy barglari xam naqqoshlikda ko'pdan beri ishlatiladi. Shona bargdan naqsh chizish ko'rsatilgan.

Naqsh gullari ichida eng oddiysi kichik dumaloq gul "kichik oygul" deb ataladi. Bu kichik oygulning xar-bir dumakog'i 5-6 bulakka bo'linishi lozim.

Bu gulni kvadrat ichiga olib, bosqichlar bilan chizilganda osongina ishlanadi. Bugulning chetini ko'ra qilib, katta ulchamda chizish mumkin. Bunday chizilgan gul "katta oygul" deb ataladi. Katta oygul ichiga kichik oygulni chizib, gulning ko'rinishini yanada o'zgartirib aloxida chiroy berish mumkin.

Barg elementlari bilan gul elementlarini qushib chizishda ikki yaproqning orasiga gul elementi chiziladi. Yaproqlarning uchini pastka yoki yuqoriga qaratib chizish mumkin. Bargli oygulni chizish 4 barg yoki 6 ta barg orasiga gul chizish bilan bajariladi.

Kesishgan barglar, ko'p qavatli barglar orasiga xam gul elementlaridan chizish mumkin. Bunda gul va barg elementlari chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi.

Bofta va shkiptilar naqsh yo'llarini bir-biri bilan bog'lashda ishlatiladi. Boftalarni aylana shaklida va to'g'ri chiziqli ichiga chizish mumkin. Bofta simmetrik naqshlar turiga kiradi. Boftalar naqsh shakliga qarab uchlik, aylanasimon, sinq chiziqli bo'ladi.

Shkiptilar asosiy naqsh yo'llarini bir-biri bilan bog'laydi. Shkiptilar naqsh elementlari ichida, ko'zcha islimi chetida 2, 3 qator qilib chiziladi. Shkiptilar naqsh tuzilishini va naqsh yo'llarini ulug'vor qilib ko'rsatadi. Shkipti yoki bofta qatnashmagan naqshlar ko'rimsiz bo'lib, kishini o'ziga jalb qilmaydi.

O'quv ustaxonada naqsh ishlash badiiy naqshlarni va uning elementlarini chizishdan boshlanadi. Naqqoshlikda "zanjira" oddiy gul bulgani uchun o'quvchilar ishni shu guldin boshlaydilar.

"Zanjira" gulini bosqichlarga bo'lib va elementlarga ajratib ishlansa, uni o'rganish osonlashadi. Bu "zanjira" gulni qalam bilan ishlash turt bosqichga bo'linadi. "Zanjira" gulni puxta o'rganish uchun uni 5-6 marta qaytadan chizish lozim. Buning uchun avvalo qalam to'g'ri ushlash naqsh qilish zarur. Qalam bosh barmoq va ko'rsatgich barmoq bilan gorizontliga tik ravishda ushlanadi. Bu ma'lum darajada malaka talab qiladi.

1- bosqich. Oralig'i 3-4 sm bo'lgan uzun ikki to'g'ri chiziqli chiziladi va bu chiziqlar teng bo'laklarga bo'linib, kvadratlar hosil qilinadi.

2- bosqich. Ikkita kvadratni qo'shib, (qavariqli xolda) yarim aylana chiziladi. Bu xuddi ishkonga o'xshash bo'ladi.

3- bosqich. Ishkomning eng yuqori tomonidan pastga qarab (botiqli xolda) yarim aylana chiziladi. Shunda tolning bargiga o'xshash gul hosil bo'ladi.

4- bosqich. Har ikki bargning yuqorisidan va pastdan kurtakcha chiqariladi. Kurtakchani kengligi bargning kengligiga baravar bo'ladi.

"Zanjira" gulni bo'yash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1- bosqich. Gulning yuqori zamini havo rang bo'yoqli bilan bo'yaladi.

2- bosqich. Gulning pastki zaminiga barg rang bo'yoqli suriladi.

3- bosqich. Gul pushti bo'yoqli bilan bo'yaladi.

4- bosqich. Kurtakchalarga oq yoki sariqli bo'yoqli berilgan.

5- bosqich. Har bir barg va kurtakchani chetidan qirmizi bo'yoqli bilan chizib chiqiladi.

O'rtalarini chetidan ajratgan xolda targ'il qilinadi. "Zanjira" gul ko'pincha endi 4 smdan ortiq bo'lmagan karnizlarga, stol ustining chetlariga ishlatiladi. O'quvchilar "zanjira" gul naqsh o'rganishgach pechak islimi naqshni ishlashga kirishadilar. Pechak islimi kvadrat ichiga ishlatiladigan, to'g'ri to'rtburchak ichiga ishlanadi. Uning o'lcham nisbatlari ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Lekin enining kengligi 4-5 smdan oshmasligi kerak. Pechak islimining bosqichlari bilan ishlash tartibi 18 smda ko'rsatilgan. Pechak islimi 4- bosqichda chiziladi. Bo'yoq berish 5- bosqichda bajariladi. Islimi gullar, o'z navbatida, ikki tomonga ulanadigan, to'rt tomonga ulanadigan va xech qayoqqa ulanmaydigan ko'rnishda bo'ldi.

Bundan tashqari, islimi gullar yo'llari va tuzilishiga qarab yakraftori, duraftor, saftori deb nomlanadi. Islimi gul elementlaridan tuzilgan bulsa, bargli raftori deb ataladi. O'quvchilar naqsh gullarini tuzishda 4,5,6,7,8,9,10-rasmlarda kursatilgandek gul elementlari, 11,12,13,14,- rasmlardagidek barg elementlari, 15,16- rasmdagidek bofta va shkiftlardan, bog'lanmalardan, marg'ulalardan foydalanishlari kerak. Ana shu elementlardan foydalanilmasa, tuzilgan naqsh chala hisoblanadi. Islimiy gullar yakka band va qo'sh band buladi. Yakka band islimiy ustidan oq bo'yoq beriladi, qo'sh band islimiy o'z fani xolicha qolaveradi.

Bargli oygul naqshi ;

1-bosqich. Bu gulni chizish uchun kvadrat chizilib, kvadratdan diagonal chiziq o'tkaziladi.

2-bosqich. Diagonal buyicha ketma-ket barg elementi ulanib chiziladi.

3-bosqich. Ketma-ket chizilgan barglar oralariga bargli oygul elementi chiziladi.

4-bosqich. Gullar novda bilan bog'lanadi, natijada bir butun bargli oygul naqsh hosil buladi. Bu naqsh ramkalar uchun ishlatiladi.

Navbatdagi gul quydagicha chiziladi.

1-bosqich. To'g'ri turtburchakni chuziqroq xolda chizib, diagonal chiziq o'tkaziladi.

2-bosqich. To'g'ri turtburchakning ikki chetiga yarimta, o'rtasiga butun oygul chiziladi.

3-bosqich. Oyullarni birlashtiradigan ikki tomoni ko'ngrali barg elementi diagonal chiziq buyicha chiziladi.

4-bosqich. Oygul bilan barglarning orasini tuldirish va bir-biri bilan bog'lash uchun marg'ulali novdalar diagonal buyicha chiziladi. Hosil bulgan naqsh qo'sh bargli oygul naqshi deb ataladi.

Naqshning kompozitsiyasi ucun temani haytdan, tevarak-atrofdagi tabiatdan, mexnat axli faoliyatidan tanlash maqsadga muvofiqdir. Naqsh ishlashdan oldin o'simlik dunyosi, hayvonot olamining tuzilishini, xususiyatini diqqat bilan o'rganilishi, sungra uning shakli ishlanishi kerak.

Naqshlanadigan buyumning shakli va nimaga ishlatilishiga qarab naqshning ma'lum turi, xoshiya, turunj va girrix tanlanadi.

Naqshlarning turlari xilma-xil bo'lib doira ichiga chizilgan turunj naqshlar bir-xil shakllardan tarkib topadi va tug'ri yoki egri chiziq buylab takrorlanib turadigan ornamental lentalar, frizlar, xoshiyalardan iborat bo'ladi. Bunga paxta islmiy misol bula oladi.

Geometrik shaklarga o'xshash to'rsimon naqshlar, kvadrat, romb, uchburchak, to'g'ri turtburchaklardan iborat bo'ladi. Ular simmetrik naqshlar deyilib, arxitektura buyublariga naqsh solinganda qullanadi.

Madoxili-[arabcha] bir-biriga kirishib turuvchi demakdir. O'zbekiston naqqoshlik amaliy sa'natining hamma turlarida juda ko'p uchraydigan uslubdir. Asosan madoxili shakli lola gulini stillashtirib tasvirlashdan kelib chiqqan. Lekin xalq naqshlari gul bargini chiroyli kursatishda intilib, ularni madoxili shaklida tasvirleydilar. Madoxili uch yaproq shaklidan iboratdir.

Turunjlar bir-xil elementlardan tarkib topgan, ma'lum tartibda tog'ri yoki egri chiziq bo'ylab takrorlanib turadigan naqshlardir.

Islimiy [arabcha] –yuguruvchi demakdir. Islimiy tug'ri yul ichiga ilon izi shaklida chiziladigan chiziqdir. Islimiy naqoshlikda keng tarqalgan uslub bo'lib, faqat yul ichiga ishlanadi. Islimiy shakli kupincha o'simliklar shaklidan olinadi. Shuning uchun o'simliksimon naqshlar deb ham ataladi. Bunga paxta islmiy barg islmi misol bo'ladi. Islimi gullar o'z navbatida ikki tomonga ulanadigan, to'rt tomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi. Islimi barg elementlaridan tuzilgan bulib, bargli raftori deb ataladi. Islimi gullar yakka band va qo'sh band buladi. Yakka band islmiy ustidan oq buyoq beriladi. Qo'sh band islmi asosan fon rangida qolaveradi. Gul, bargli , bofta shakllardan foydalanib naqsh chizsak, "gullik islmi", "bargli islmi", "bofta islmi" naqshlar tuzgan bulamiz. Ma'lumki, biror naqshning nomi asosiy naqsh xosil qilinuvchi shakllardan olinadi.

Eng avval kvadrat chizilib, uning ichidan yon tomonlariga xoshiya tortiladi. Keyin kvadratning turt tomoniga nuqtalar quyib, uni uchta teng bo'lakka bo'linadi. U nuqtalarni tik va yotiq chiziqlar bilan birlashtirilganda kvadrat 9 katakka bulinadi.

Utkazilgan chiziqlar uq chiziq xisoblanib, ularni ikki tomondan ma'lum ulchovda yondash chiziqlar tortish bilan naqsh yasaladi. Bu naqsh yasash jixatidan ancha murakkab bulib, kvadratlarini bulishda aniq ko'z bilan chamalashni talab qiladi. Kvadrat ichidagi chiziqlar biri ikkinchisining ustidan to'g'ri utib ketavermasdan, balki bir gal tagidan, ikkinchi gal ustidan utib tugun xosil qiladi. Kvadrat chizilib, kvadratning xar ikkala tomonini teng to'rt bulakka bo'lib, 16 ta katak xosil qilinadi.

To'rtta eng chetki katakning diagonalini chiziladi. Diagonalarni tug'ri chiziq bilan birlashtirib oddiy girix naqshining shakli chiziladi. Girix tugun demakdir, to'ri chiziqlarning kesishishi natijasida shunday chigal shakllar xosil bo'ladiki, ularning qanday yasalganini darrov aniqlash qiyin. Ana shunday geometric naqshlarni xalq ustalari "girix" deb atashadi.

Usta Shirin Murodov bir necha xil girix yasash sirlarini aniqlab bergan.

Uquv uslubiy qism

O'qituvchining fazilatlari

O'qituvchi talabalarni sevishi, ularga chinakkam g'amxurlik qilishi va ular bilan o'z farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Talabalar mehribon, ochiq kungil, o'zini ularga yaqin tutadigan o'qituvchini sevadilar, xar-bir ishda unga ergashishga xarakat qiladilar, xatto shunday xislatlarga ega bo'lgan pedagoglardan bazilarini umir buyi unitilmaydi.

O'qituvchiga xos xususiyatlardan yana biri talabalar bilan bir me'yorda munosabatda bo'lish, lekin o'larga nisbatan qa'tiy va jiddiy talabchan bo'la olishdir. O'qituvchi talabalar bilan yaqindan munosabatda bo'lish, ularga doim g'amxurlik qilish bilan bir vaqtda, ularni erkalatib ham yubormasligi kerak.

Talabalar o'zlari bilan xaddan tashqari qupol muomilada bo'luvchi o'qituvchini sevmaydilar. Bas, shunday ekan, o'qituvchi talabalar bilan xar tomonni xisobga olgan xolda bir me'yorda muomila qilishi kerak.

Shuning uchun xamisha yangi g'alabalar sari dadil qadam tashlab boruvchi, yangiliklar izlovchi xar-bir o'qituvchi talim-tarbiya ishlarini zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajada kutarish uchun tabiat va jamiyatning vjudga kelish xamda taraqqiy etish qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak.

O'qituvchi sinfda va sinfdan tashqarida o'quvchilar o'rtasida olib boradigan talim-tarbiya ishida o'larni xozirgi zamon masalalari bilan tanishtiradi, ularga yangi kishiga, demokratiya sharoitida yashaydigan kishiga xos xislatlarni tarbiyalaydi.

Pedagog yani o'qituvchi kasbi ham juda murakkab kasblardan biridir. Xozirgi zamon o'qituvchi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jixatdan pishiq, ruxan tetik, bilibdon, vatanparvarlik, mamlakatimizda dekoratik jamiyat qurilishining akyiv binokori qilib etishtirish vazifasi yuklangan. Shuning uchun ham u keng malumotli va yuksak madaniyatli qilishi bo'lishi lozim.

Pedagogika usib kealotgan yosh avlodni tarbiyalash tug'risidagi fandir. Kishilik faoliyati taraqqiy etishi bilan u ham o'sib boradi. Kishilik jamiyatni paydo bulishi bilan odamlarning mehnat faoliyati prossesida ularning ishlab chiqarish tajribalari, mehnat malakalari paydo bo'ldi va ular o'zgarib, orta bordi, ularda turli mehnat qurolarini ishlat bilish kunikmalari xosil bo'ladi va bu qurollqrni takomillashtirish qobilyati, nutq va taffakur o'sib, rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat prossida ortirilgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mexnatda tshtirok etishga o'rgatishi kerak edi va shunday qildi. Shunday qilib, tarbiya kishilik jamiyati praktik extiyojining obyektiv zaruriyatidan kelibchiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi.

Keksa avlod mehnat prossesida ortirilgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatga ishtirok etishga o'rgatishi kerak edi va shunday qildi.

Pedagog yani o'qituvchilik kasbi ham juda murakkab kasblardan biridir.

Yangicha o'qitish texnologiyalari

a) Ijtimoi ishlab chiqarishning obektiv ehtiyojlari hamda fan va texnikaning taraqqiyot darajasi, ixtimoliy tuzumning xarakteri, bunga davlatimizning hozirgi paytda olib borayotgan, kasbiy talim nazaryasi va ma'naviy ishlab chiqarishni yulga quyish chora tadbirlari xaqidagi bosqichma-bosqich isloxlari kiradi.

b) Davlatimiz muayan turdagi o'quv yurti oldiga quyadigan maqsad xamda vazifalari. Bunday turdagi o'quv yurtlari sarasiga o'qish mudati kamida 3-yil bulgan Akademik litseylar va kasbiy kollejlari kirib, ular oldiga "Ijodiy va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan yuqori umumiy kasbiy madaniyatini kasb etgan mutaxassislar yani barkamol avlodni shakllantirishni maqsad qilib quydi. Bunday barkamol avlodni shakllantirish maqsadida Vazirlar maxkamasi 1998-yil 24-fevralda qabul qilingan "Akademik litseylar va kasbiy kollejlari tashkil etish xamda ular faoliyatini boshqarish tug'risida" gi qarori kasbiy kollejlari uchun malakali pedagog va muxandis-pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarini ham belgilab beradi.

Bu hozirgi paytda faolliyat kursatayotgan oliy o'quv yurtlari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universteti, Namangan Muxandislik Pedagogik Instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sa'nat Instituti va bugungi kunda bitiruv malakaviy mavzularini ximoya qilayotgan "Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti davlatimizning o'quv yurtlari oldiga quygan maqsad va vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirayotgan isloxlari bo'lib, Kasbiy ta'lim Sa'nat yunalishi bo'yicha bitirib chiqayotgan navbatdagi qaldirg'ochlardir.

O'qitish priiplaridan kelib chiqadigan va talabalarning imkoniyatlarini etiborga oluvchi didaktik talablar.

Kasbiy talimning mazmuni tarixiy xarakterga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida u turlicha bo'lgan. Bugunga kelib esa Kasbiy talimning dastlabki dasturida talabalar amaliy-manaviy kasb darslarida egallashi lozim bulgan, ilmiy texnikaviy bilishlarning mehnat kunikma va malakalarning xajmi hamda mazmuni belgilab beriladi. Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga kasb talimi berish va ularni tarbiyalash soxasida davlatimiz tomonidan quyilgan maqsad va vazifalar aniq o'z ifodasini topdi.

Kasbiy ta'lim dasturi o'quv reja asosida ishlab chiqariladi va demokratik davlatda Oliy va Urta maxsus kasb xunar talimi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Kasbiy ta'lim o'qituvchisi uzining kundalik ish faoliyatida bu dastirga amal qilib, dasturda kursatilgan mavzularga maruza matnlari yozib darsga kiradi. Bu dasturga amal qilib, uning bajarilishi majburiy xisoblanadi.

Maxsus fan o'qituvchisi
Sattorov Otabekning
4 soatga muljalangan

“Tasdiqlayman”
o'quv ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

DARS REJA MATNI

Gurux 401-KT(c)

Sana 15.04.2013.

Darsning tartib soni № 4 soatga muljallangan.

Darsning mavzusi: “olti qirrali naqsh kompozitsiyasini yaratish”.

Darsning maqsadi: talabalarga naqsh ishlash ketma-ketligini to'shuntirib
ko'rsatish.

Talimiy: ishlab chiqarish talimi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini
Shaklantirish.

.

Tarbiyaviy: talabalarni kasbiy malakalarini shaklantirishda ustoz - shogird
an'analariga amal qilishni ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularning ijodiy
qobiliyatini o'stirish.

DARSNING TURI

Darsga qulaniladigan asosiy usul: Kompyuterli

Darsning jixozlari: ushbu darsga taluqli bo'lgan kompyuter sinf xonasi, elektron doska, slaydlar va test savollari.

DARSNING MAZMUNI

1. Tashkiliy qism: talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yuqlama qilib chiqish.
2. O'tilgan dars mavzusini so'rab, mustaxkamlash va talabalar bilimini baxolash.
 - Naqqoshlik sa'nati tarixini bilasizmi?
 - Naqqoshlik uslublarni bilasizmi?
 - Naqqoshlik necha xil maktablarga bo'linadi?
 - Naqshlar qanday ishlanadi?
3. Yangi mavzuning boshi
4. O'tilgan mavzu yuzasidan savol javob
5. Uy vazifasi
6. Darsni yakunlash

DARSNING BORISHI

Reja:

1. Naqsh ishlashdagi ishlar ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish.
2. Naqsh ishlashdagi ishlarni bajarishda ustoz - shogird an'analari, ustoz va shogirdning o'zaro me'zonlari asosida ish yuritib borish.
3. Yuqorida ko'rsatilgan dars ketma-ketligi jaroyonida talaba taffako'ri va kasbga qiziqishini oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid naqshlarni yaratish.
4. Eskizlardan foydalanib oq qog'ozga eskiz tayyorlash.

“Olti qirrali naqsh kompozitsiyasini yaratish”

mavzusida **kompyuterli** o'qitishning texnologik sxemasi va **80 minutlik** dars taqsimoti. (dars kompyuter xonasida o'tkaziladi.)

O'qituvchi dasturiy vositalarni tayyorlaydi.	5 minut
O'qituvchi talabalarini kichik guruxlarga bo'lib, ishchi o'rinlar ташкил tashkil etadi.	10 minut
O'qituvchi tomonidan xar-bir guruxga aloxida topshiriq beradi.	10 minut
Xar-bir gurux tarmoqni boshqarib, tpshiriqni bajarishga kirishadi.	5 minut
Olti qirrali naqsh kompozitsiyalarini talabalar mustaqil o'rganadilar.	10 minut
Individual kasbiy muloqot taminlanadi.	5 minut
Kompyuterda testlar o'tkazilib, bilimlar mustaxkamlanadi.	25 minut
O'qituvchi tomonidan erishilgan natijalar baxolanadi.	10 minut

Kolej direktori

Naqshlik guruxi uchun
o'qituvch Sattorov Otabekning naqshlik
fanidan tuzgan yillik ish rejasi.

T/p	Bo'lim va Mavzularning nomi	Mashg'ulot tartibi raqami	Dars o'tgan kun	Darsga ajratilgan soat	Mashg'ulot tipi va turi	Kurgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi Amaliy laboratorita Tadqiqoti.	Uy vazifasi	Adabiyotlar	Fanlararo bog'lanish	Izox
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Mutaxassislika kirish.	№1	2.04.13	2	Og'iza ki Amaliy	Naqshga oid Plakat va slaydlar.	Naqshga Oid bilim Va ko'nikmalarning yozma bayoni				
2	Kirish Naqsh asoslari.	№2	14.04.13	2	Og'iza ki	Naqsh Asoslarini isbotlab Beruvchi plakatlar					
3	Naqsh turlari.	№3	20.04.13	2	Og'iza ki	Naqsh Turlariga oid rasmlar	Naqsh turlarini ish dasturiga yozib borish.	O'qib kelish		Tarix Adabiyot	
4	Naqshda mazmun va shakl.	№4	26,04,13	2	Og'iza ki	Sa'natda mazmun va shaklga oid bayonnomalar va rasmlar.		O'qib kelish		Tarix Adabiyot	
5	Naqsh janrlari	№5	2.05.13	2	Og'iza ki	Naqshlik uslublariga oid rasmlar.					
6	Naqsh	№6	8.05.13	2	Og'iza ki	Naqshlikga oid plakatlar.	Plakatlarni o'rganish	Tanishis h.		Rasm	

7	Nusxa ko'chirish texnologiyasi.	№7	14.05.13	2	Og'izaki	Nusxa Ko'chirish Texnologiyasi ga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish.	Tanishish.		Rasm	
8	Dars o'tish xonasida Xavsizlik texnikasi va yong'in Xavsizligi.	№8	20.05.13	2	Og'izaki va Amaliy	Xavsizlik texnikasi va yong'in xavsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish.			Fizika Ximya	
9	Naqoshlikda Ishlatiladigan asbob-uskunalar, muyqalamlarni saqlash qoidalari.	№9	26.05.13	2	Og'izaki	Ma'lum usullardan foydalanish.					
10	Naqoshlikda ishlatiladigan moybuyoq turlari	№10	1.06.13	2	Og'izaki	Naqsh turlari tasvirlangan slaydlar	Eng sifatli buyoqni tanlash.	Sifatli muyqalam tanlash		Fizika Ximya	
11	Naqsh nusxasini Qog'ozga chizish.	№11	7.06.13	4	Amaliy	Naqsh eskizi	Naqsh.			Ximya	
12	Naqsh kuchirish Xaqida tushuncha	№12	13.06.13	2	Og'izaki	Naqqoshlikka Oid plakatlar	Naqqoshlikka Oid plakatlar				
13	Naqsh eskizini qalamda so'ngra rangda kerakli o'.	№13	19.06.13	4	Amaliy					Qalam-tasvir Rang-tasvir	
14	Naqshga qarab kuchirish.	№14	25.06.13	4	Amaliy	Eskizdan foydalanish.	Naqsh eskizini qog'zga tushurish.			Chizma-chilik	
15	Taqdimot Jami			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Sattorov Otabek.

**Samarqand viloyati.
Samarqand shaxar
Sa'nat kolleji
Haqqoshlik
№ ____ guruxi
Murabbiysi.**

**“Tasdiqlayman”
Kollej ma'naviyat
va ma'rifat ishlari
bo'yicha direktor
o'rinbosari.**

**Sattorov Otabekning 2012-2013
O'quv yilida bajariladigan ma'naviy
va ma'rifiy ishlar rejasi .**

№	Bajariladigan tadbirlar.	Bajarish Muddati	Izox
1.	Avgust	26.08.12	Ma'naviy va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinbosari.
	Dars sinfxonasining davlat ramizlari: “Prezident portireti, davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat gimni” va prezident asarlari bilan jixozlash		
2.	Sentyabr	2.09.12	Murabbiy
	1-Sentabr O'zbekiston Reapublikasi Mustaqqiligi kuniga bag'ishlangan tadbirda qatnashish.		
	Sentyabr		
3.	Bilim yurtining talabalari, bilim yurtining ichki qonun-qoidalari bilan tanishtirish.	3.09.12	Direktor Murabbiy
4.	Oktyabr	Doimiy	Murabbiy
	Naqqoshlik maktablari xaqida suxbat. Gurux davomati va o'qish jarayonini tekshirib borish.		
5.			

6.	Noyabr	Doimiy	Tarix o'qituvchisi.
	O'zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to'liq ma'lumot berish.		
	Dekabr		
7.	“8-dekabr O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma'ruza qilish.	7.11.12.	Мураббий Tarix o'qituvchisi
8.	Yanvar	26.01.13.	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni, guruxning umumiy va maxsus fanlardan to'plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat ryting ballarini ko'rib chiqib, talabalar bilan birgalikda taxlil qilish.		

Tuzuvchi gurux rahbari:

o'qituvchi. Sattorov Otabek.

Illyustratsiya:




Рис. 17 з. 191 а. Развертка орнамента




Рис. 18 з. 191 а. Орнамент, составленный из элементов в разбег




Рис. 19 з. 191 а. Орнамент, построенный на 4-лучевой сетке





Рис. 20 з. 191 б. Построение орнамента, состоящего из элементов, полученных из 4-лучевой сетки









Рис. 179. Дверец в Теремке. Панно № 7











Tabiatni muxofaza qilish

Tabiatni muxofaza qilish.

Har qanday tuproq qattiq, suyuq va gazsimon qismlardan iborat bo'ladi. Uning suyuq qismi suvdan iborat bulib, shu suyuqlik tuproq g'ovaklari orasida joylashgan va tuproq zarrachalari suyuqlik bilan tuyungan bo'ladi. Tuproqdagi namlikning asosiy manbalari-atmosfera va yer osti suvlari o'simliklar ildizlarini namlik bilan taminlaydi.

Tuproqdagi suv turli xollarda bulishi mumkin, yani; 1.kristallangan namlik; 2.qattiq namlik; 3.bug' xolidagi namlik; 4.bo'g'langan namlik bo'ladi. Tuproqdagi uchraydigan namliklar formasi ichida absorbitsiya qilinadigan kapillyar suv- tuproqning 0,2-8,0 mkli g'avaklari orasida tuplangan bo'lib, ular o'simliklar tomonidan foydalaniladi. Suvning bu xili tuproqdagi bakteriyalar, soda tuzilgan mayda hayvonlarning hayot faolyatini ham taminlaydi.

Undan tashqari tortiluvchi gravitatsion suv ham uchrab, tuproqning kattaroq qovoqlarida vaqtincha tuplanadi, lekin tezda tarqalib ketadi. Yuqorida keltirilgan va tuproqda uchraydigan suvning formalari ichida erkin tortiluvchi grafitatsiya suvi o'simliklar tez va yengil uzlashtiriladi. Suvning bu formasi yomg'ir yoki so'g'orish davomida tuproqda doim buladi. O'simliklarning suvga bo'lgan extiyojini qondira olmaydigan tuproqdagi namlikning sulish ko'fsenti deb aytiladi. Bunday namlik qumda 0,9% og'ir loydaesa- 16,3% ni tashkil etadi. Tuproqdagi bor suvning miqdori va uning ushlab turilishi- tuproqdagi namlik xajmi deyiladi, tuproqning namlikni ushlab shimib olishi va pastki qatlamlariga o'tkazishi, tuproqning namlik o'tkazuvchanligi deb aytiladi. Er osti suvlarining yoki pastki qatlamlaridagi namlikning kapilyarlar orqali zarrachalardan-g'ovaklarga ko'tarilishiga tuproqning suvni kutarib berish xislati deyiladi. Tuproq eritmasi, uning tarkibi, konsentratsiyasi tuproqdagi suv va unda erigan organik hamda miniral moddalar miqdoridan kelib chiqadi. Maslan, tuproq suyuqligining quruq qoldig'i konsentratsiyasi 0,25% dank kam bo'lsa, shurlangan tuproq xisoblanadi. Tuproq eritmasi miniral birikmalardan biqarbonat kalsiy-biqarbonat magni , kamroq kali biqarbonati, natri biqarbonatlari uchraydi.

Shurlangan tuproq eritmasi, undagi engil eriydigan tuzlarning tarkibi va miqdoriga bog'liqdir. Ularga xloridlar, sulfatlar, karbonatlar, bikarbonatlar va boshqalar kiradi. Tuproq eritmasi tuproq xosil bo'lishiga, yengil eriydigan tuzlarning ko'pligi esa shurxok, shur tuproq larning vjudga kelishiga sabab buladi.

Tuproqning gaz rejimi uning xavo o'tkazuvchanlik va xavo saqlash xususiyatlariga bog'liqdir. Tuproqda xavoning oz yoki ko'p bulishi g'ovakligiga bog'liqdir; namlik kam tuproqlarda xavo kam bo'ladi. Tuproqdagi xavoning miqdori 0-40% gacha bo'ladi. Tuproqda keltirilgan asosiy gazlardan tashqari ozroq miqdorda gazlar ham bo'ladi.

Tuproq muxitida atmosferaga nisbatan azotning miqdori oz (2%), karbonat angidrid (10% gacha, ayrim xollarda 20%) ancha yuqori bo'ladi.

Tuproqning 25sm qalinligida doim atmosfera bilan xavo almashinib turadi. Er yuzining o'simliklar bilan qoplangan maydoni 100-10km. Tuproqda xavoning umumiy xajmi 120-10m ga teng. Tuproqning xarorati quyoshdan kelayotgan energiyaga bog'liqdir. Tuproqning yuza qismi quyosh nurini yutish xisobiga qiziydi. Quyosh nurining 15-45% qaytariladi. Lekin, tuproqning yuza qismida xarorat doim o'zgarib turadi. Kunduzi qizigan tuproq tungi payt uzidan issiqlik chiqoradi, va sezilarli darajada soviydi, xarorat pasayadi, lekin tuproqning pastki qatlamlarida xarorat doimiy.

Tuproq xarorati kun davomida uzgarib turadi. Masalan, chul xududlarida tuproq yuzasida yoz faslida xarorat 50 gradusdan ortsa, 50sm chuqurlikdagi xarorat kun davomida 2-3 ga o'zgaradi. Bunday o'zgarish Ovrupaning o'rta qismidagi tuproqlarning 30sm chuqurligida kuzatiladi.

Tuproqdagi ayrim ekolodik omillarning salbiy ta'siri natijasida o'simliklar tabiiy suvni fizologik jixatdan qabul qila olmayai, maslan, past xarorat natijasida tuproq muzlaydi va bunday namlikni o'simlikning ildizi qabul qila olmaydi. Yoki tuproq yuzasini suv bosganda, tuproq zarrachalari orasida kislorod yuq xolda ham o'simliklar namlikni tortib olmaydi, sarg'ayadi, keyinchalik quriydi. Tuproqning ortiqcha shurligi yoki nordonligi tufayli shu yerda bor namlik o'simliklarga fialogik foydali emasdir. Shunday qilib, tproq tirik organizimlar uchun xayot muxiti bo'lishi bilan suv o'tkazish, issiqlik va xavo saqlash qobilyatiga ega jinsdir.

Xulosa

Xulosa.

Ma'lumki talimni hamma zamonlar uchun xos bo'lgan biror andoza yoki qalamga solib bo'lmaydi. U jamiyatning ijobiy moil talablaridan kelib chiqqan xolda ijobiy rivojlantiradi, yoki islox qilinadi. Natijada talimdagi usul va uslublari ham yangilanadi.

Ijobiy moil tuzumlar va munosabatlar xamisha o'garib boradi. Ammo bu o'zgarishlarga jamiyat axlidagi turg'unlik yangiliklar yaratishga keng imkon bermaydi. Fikr inersiyasi, munosabatlar ko'nikmasini yengish oson emas. Ta'limda isloxatlar o'tkazmay tariflab va ma'naviyatni rivojlantirmasdan to'rib, ongni xam o'zgartirib bo'lmaydi.

Ma'rifat tufayli millatning shuri uyg'ondi, dunyoqarashi o'zgaradi, o'zgacha fikrlaydigan istiqlol yoshlari paydo bo'ldi. Shuning uchun prezidentimiz I.A.Karimov 2008-yilni Yoshlar yili deb atdi.

Naqqoshlik sa'nati-xayot ziynatidir. Bu ko'xna sa'nat tarixi asrlar bilan ulchanadi. Sherdor madrasasi nomi bilan mashxur me'morchilik yodgorligi Samarqand Registonida, Ulug'bek madrasasiga, "qo'sh" uslubda joylashgan. Bu imorat ustoz mullo Abduljabor me'mor sa'natidir., jumalari bor. Uning narirog'dagi koshin bezaklari orasida mayda xarfli Inimali Muxammad Avaz Samarqandiy so'zlari saqlangan . Ayniqsa buyuk peshtoq bag'alaridagi quyosh nuri sochgan ajoyib gulzorda nozik oxuni quvib kelayotgan sher tasviri madrasaning dovrug'ini oshirib yuborgan. Bu sa'nat durdonalarini yaqin-yaqinlargacha yoshlarimiz ta'sviriy sa'nat borasida o'tmishda yashab ijod etgan ulkan ijdkor alomalar tomonidan Bexzod, Mirak naqqosh, Muxammad Avaz Samarqandiy, Maxmud Muzaxib kabi yirik sa'nat namoyondalarining ham eshitmaganedik. Respublikamizning mustaqilikka erishishi tufayli xayotimizning barcha jabxalarida turli ijtimoiy- iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Shunungdek to'rt yil mobaynida Ustozlik qilib kelgan ustozlarim Meliquliov A.N, Abrayev.K.Sh ga o'z minatdorchiligimni bildiraman.

Adabiyotlar

Adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov O'zbekiston 21-asrga intilmoqda.
- 2.I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.
- 3.I.A.Karimov O'zbekiston 21-asr bo'saxasida xavsizlikka taxdid barqarorlik shartlar hamda taraqqiyot kafolatlari.
- 4.Xolmatov B.Q.Naqqoshlik-T; Iqtisod- molya 2007.
- 5.Shabaratov. P.P.Kompazitsiya-T;<<Yangi asr avlodi>> 2007 .
- 6.G'ulomov.K.M.Amaliy sa'nat-T;Iqtisod-molya 2008.
- 7.Bulatov.S.S.Dadashev.L.Naqqsh alifbosi.-T;Chulpon 1999.
- 8.Qosmov.Q.Naqqoshlik-T;O'qituvchi 1990.
- 9.Azimov.I.O'zbekiston naqshu nigoralari-T;G'G'ulomov nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti 1987.
- 10.Bulatov.S.S.Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och uymakorligiga oid adabiyotlarning izoxli lug'ati.T;Mexnat 1991.